Xolmirzayev Baxtiyor Nurmirza o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15734502

Annotatsiya. Maqolada sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish haqida umumiy fikr-mulohazalar bayon qilindi. Xususan, to‘garaklar va turli ma’naviy tadbirlarda ustuvor tamoyillar, samarali omillar, xalq o‘yinlari, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlarining o‘rni beqiyos ekanligi ochib berildi.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, sport, texnologiya, tarbiya, ma’naviyat, tizim, jismoniy tarbiya, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, jismoniy mashq

Kirish

Jahonda har bir mamlakat milliy g‘ururini tarbiyalash muhim pedagogik muammo sifatida tadqiq qilinib, uni tarbiyalashning hozirgi ahvolini o‘rganish pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda milliy g‘urur tushunchasini tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlash, ularning milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda va vatanparvarlik sifatlarini kamol toptirishda tarbiyachi-pedagoglar milliy, umumbashariy, badiiy qiymatlari birligidan iborat tarixiy davrga xos ma’naviy-ma’rifiy talablarga javob beradigan infratuzilmasini rivojlantirish muammoni ijobiy hal etuvchi omil hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e’tibor berishimiz zarur” [6]. O‘quvchilarning irodalilik, g‘alabaga intiluvchanlik, chaqqonlik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik kabi sifatlarning rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik-psixologik ta’lim samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarda sportchiga xos xarakter xislatlari rivojlanib, so‘ng bu xislatlar uning doimiy xarakteri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda bevosita ma’naviy-axloqiy, jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son, 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” PQ-5280-sonli Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi [2; 3; 4; 5].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni (2020-y) hamda Davlat ta’lim standarti talablari asosida barcha ta’lim muassasalarida, xususan, umumiy o‘rta ta’limda jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlari hamda turli sport musobaqalari muntazam ravishda o‘tkazilib borilmoqda [1]. Bu jarayonlar sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash, ularni kasb-hunar yo‘lida mehnat qilish ona Vatan himoyasiga tayyor

qilib tarbiyalashga qaratilishi bilan integratsion xususiyatga egadir. Jismoniy tarbiya ta'limining asosiy shakli va mazmunini jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etadi. Keyingi vaqtda bu ikki yo'nalishdagi keng qamrovli va yuksak maqsadlarga qaratilgan ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mujassamlashgan holda foydalanish orqali amalga oshirish mumkin[7]. Ularning har birida umumiy va maxsus maqsadlarga qaratilgan o'ta masuliyatli ta'lim-tarbiya jarayonlari integratsiyalashib sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qiladi. Mazkur jarayonlarni ilmiy pedagogik jihatdan tahlil etish va asoslash jismoniy tarbiya ta'limining eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Yurtimizda keng nishonlanayotgan "Mustaqillik bayrami", "Konstitutsiya kuni", "Ustoz va murabbiylar kuni", "Navro'z", "Xotira va qadrlash kuni" kabi bayram va turli milliy marosimlar, shuningdek, ulkan bunyodkorlik ishlari Milliy g'urur g'oyasi bilan, xususan, uning "Milliy o'zlikni anglash", "Milliy g'urur", "Milliy ong", "Mustaqil fikrlash", "Qadriyatlar", "Adolatparvar bo'lish", "Ilm egallash", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Elim deb, yurtim deb, yonib yashaylik" kabi tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik xos tuyg'usini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

O'quvchilarning milliy g'ururini tarbiyalash quyidagi pedagogik-psixologik omillar orqali amalga oshiriladi:

sinfdan tashqari sport mashg'ulotlari jarayonida fanlarning maqsadli bog'liqligi;

vatan tarixi va buguni haqida suhbat hamda munozaralar;

tarbiyaviy ishlar: milliy qahramonlar va davlat arboblari Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va shukabilar) faoliyatiga bag'ishlangan kechalar uyushtirish;

milliy qadriyatlarga bag'ishlangan kechalar tashkil qilish (Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni va shu singarilar);

ommaviy hasharlarda qatnashish;

sport, fan, adabiyot va san'at arboblari tavallud kunlarini nishonlashni tashkil qilish;

sport musobaqalari;

qadimiy obidalarga, tarixiy shaharlar (Xiva, Samarqand, Buxoro)ga sayohatlar uyushtirish va shu mavzuda munozara, suhbatlar tashkil qilish;

mashhur adabiyot, fan va san'at namoyandalari bilan uchrashuv kechalari uyushtirish;

sport to'garaklarida tayyorlagan mashqlarni ko'rsatish va shu kabilar.

Demak, maktab o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantirishdagi, uning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy, siyosiy, diniy va boshqa qirralari bir-biri bilan o'zaro aloqador holda ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi-yoshlarni barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida ta'lim-tarbiya bilan birgalikda jismoniy mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini ularning ongiga singdirish lozimdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda quyidagi xalq o'yinlarning ahamiyati juda yuqoridir: "qorong'u" (qorong'ida qo'rg'on olish), "bandol" (asir olish), "o'tish-o'tish" (davra o'yini), "chavgon" (to'p o'yini), "o't bandal" (tayoq o'yini), "tolbargak", "gul o'yini", "qorxat", "yomg'ir yog'aloq", "topishmoq top", "tez aytish", "kim aytdi" "yashirganni top", "chopa turib o'tirish", "yoshlam-yoshlam", "oltin darvoza", "xurmacha bog'i", "mehmon-mehmon", "moy kulcha", "chap berish", "besh tosh", "to'y-to'y", "sakra-sakra", "otish-otish", "rush-urush", "jik-jik", "bozor-bozor", "quvlashmachoq", "otilgan do'ppini kim oldin olib keladi?", "tez qaytish", "kim chopag'on", "zum-zum", "mushuk-sichqon", "pishakvoy", "quyonim" va hokazo [8]. O'rta va yuqori maktab yoshidagi o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda harakatli o'yinlar: "qopqon", "cho'nqa shuvoq", "yelkada kurashish", "bo'ron", "qirqtosh", "cho'pon yoki podachi", "arqon talashish", "chavandoz", "chillak", "chertki", "lanka", "bekinmachoq" "oq terakmi ko'k terak",

“arqoqn tortish”, “jambil”, “to‘ptosh”, “oshiq o‘yini”, “beshtosh”, “qo‘riqchi”, “podachi o‘yini”, “do‘ppi yashirish”, “chaqqonlar va merganlar”, podsho va vazir”, “izsiz quyon”, “chavandoz”, “kichik uloq”[9] va hakozo hamda sport o‘yinlari: futbol, voleybol, gandbol, basketbol, tennis, yakka kurash va boshqa sport o‘yinlari o‘quvchi-yoshlarning milliy g‘urur tuyg‘usining rivojlanishida juda katta ahamiyatlidir.

Sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy tadbirning mavzusi, xarakterli xususiyati, o‘rganilayotgan muammoning ijobiy yechimini kafolatlashda ahamiyatli ekanini inobatga olgan holda “Keys-stadi”, “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha”, “Inform-dayjest”, “Mavzuli blits-so‘rov”, “Breyn-ring”, “Axborot +” kabi texnologiyalar tanlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayoni shuni ko‘rsatadiki, sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda ustuvor tamoyillar, samarali omillar, xalq o‘yinlari, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jumaldan, Namangna, Andijon, Farg‘ona viloyatlarida joylashgan maktablarda metodist-o‘qituvchilar va respondent-o‘quvchilar ishtirokida muhokamalar tashkil etildi. Ularning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlanganligi (yuqori, o‘rta va past darajalarda) baholash mezonlarida o‘z ifodasini topdi. Tajriba-sinov bosqichida olingan natijalar sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish malakalariga (12,3 % ga) ega bo‘lganliklarini ko‘rsatdi. Bu holat o‘z navbatida ilmiy-pedagogik tajribani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligining yorqin ifodasi sanaladi.

Xulosa

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usiga chuqur munosabatlarini anglash, ta’lim jarayonida ularni rivojlantirishning eng samarali pedagogik shakllari, vositalari, tamoyillar va usullarini oqilona tanlashga imkon beradi, o‘quvchiga o‘zi va jamiyat uchun zarur bo‘lgan kerakli fazilatlar hamda munosabatlarni rivojlantirishda yordam berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston; 2020. // https://lex.uz/docs/3107036

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-sonli Farmoni https://www.lex.uz/acts/

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-sonli Farmoni // https://www.lex.uz/acts/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” PQ-5280-son Qarori // https://www.lex.uz/acts/

6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 257 b.

7. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston. 2010. 406 b.

8. Эрдонов О.Л. Оздоровительная физическая культура и система образовательного процесса по физическому воспитанию студентов. Учебное пособие. – Ташкент: 2012. 178 с.

9. Саломов Р.С. Проблемы высшего физического воспитания. Монография; - Ташкент; 1992. 168 с.